ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Norboyev O‘ktam Safarboyevich
Urganch RANCH texnologiya universiteti dotsenti,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).,

Email: norboyevuktam1982@gmail.com

Tel: +998 93 922 87 32
ORCID: 0009-0002-6809-1191

O‘ZBEK-INGLIZ ADABIY ALOQALARI TARIXIGA OID AYRIM LAVHALAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada mutafakkir yirik siymolaridan biri bo‘lgan Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘zbek va ingliz olimlari tomonidan o‘rganilishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, adabiyot, asar, shoir, doston.

Abstract: This article analyzes the study of the life and work of Alisher Navoi, one of the greatest thinkers, by Uzbek and English scholars.

Keywords: Alisher Navoi, literature, work, poet, epic.

Аннотация: В данной статье анализируется изучение жизни и творчества одного из величайших мыслителей Алишера Навои узбекскими и английскими учеными.

Ключевые слова: Алишер Навои, литература, произведение, поэт, дастан.

Kirish. O‘zbek ingliz adabiy aloqalari tarixida buyuk o‘zbek shoiri mutafakkir Alisher Navoiy alohida o‘rinni ishg‘ol etadi.

Jahon adabiyoti yirik siymolaridan biri bo‘lgan Alisher Navoiy o‘z ijodiy salohiyatiga ko‘ra, uzoq davrlardan beri G‘arb olimlari diqqat markazida bo‘lib keldi. Bu xususda, ayniqsa fransuz, nemis venger olimlari qatori, ingliz adabiyotshunoslarining ishlari ham alohida ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Fandagi ma’lumotlarga tayanib, ingliz ziyolilari orasida Navoiy ijodi XVII asrning boshlari birinchi choragidayoq ma’lum edi, deyish mumkin. Professor H.S.Sulaymonning ishlarida bu masalaga oid quyidagi xulosa keltirilgan: “Navoiy asarlarining Evropaga kirib borganlaridan eng qadimiysi 1625 yilga oid. Shu yili Angliyaning Oksford universitetiga shoirning bir tema devoni olingan”. Biroq, shundan qariyb ikki asr o‘tgandan keyingina inliz adabiyotshunosligida shoir hayoti va ijodini u yoki bu tarzda ilmiy o‘rganish boshlandi.

Ya’ni XIX asrda Angliyada fors adabiyotini o‘rganish bo‘yicha kuchli bir yo‘nalish paydo bo‘ldi. Bu hol Navoiy ijodining ingliz olimlari tomonidan o‘rganilishiga ham turtki bo‘ldi. Boshqacha aytganda Navoiy Angliyada fors adabiyoti munosabati bilan o‘rganila boshlandi.

XIX asrning birinchi yarmigacha Navoiy ijodini tadqiq etishda G‘arbiy Evropa sharkshunosligida, asosan, Davlatshox Samarqandiy va Som Mirzolar tazkiralariga suyanilib, xulosa chiqarilgan bo‘lsa, endilikda ular safi kengayib, bunga Jomiyning “Bahoriston”i (7 ravzasi)

qo‘shildi va tadqiqotlarda bevosita Navoiyning o‘ziga murojaat etish, uning ijodi namunalarini tahlil etib, xulosalar berish ham rasm bo‘ldi. Bu bilan Navoiy ijodi bahsidagi da’volarni ilmiy dalillash sari dadil qadamlar tashlandi. Birinchilardan bo‘lib bu sohada asar yaratgan olimlardan biri ingliz sharqshunosi S.Gor Ousli edi. Uning “Fors shuarosi tarjimai hollariga oid tanqidiy tahliliy izohlar bilan to‘ldirilgan qaydlar” kitobi Navoiyning noyob qobiliyati, favqulodda iqtidorini shoirning o‘z asarlari tahlili va Jomiyning e’tiroflariga tayanib, yuksak baholovchi holis targ‘ib va tashviq qiluvchi G‘arbdagi ilk ilmiy dalillangan asarlardandir. Uning mazkur asaridan joy olgan to‘rtinchi maqola, ya’ni “Amir Ali Shir Aleksandrning muazzam qal’asi devori” deb nomlangan ocherki “Saddi Iskandariy” dostoni misolida Navoiyning falsafiy-ahloqiy hamda siyosiy qarashlarini tahlil etib berishga bag‘ishlangan.

Ocherkka nom qo‘yishda S.G.Ousli (ko‘rib o‘tilganidek) “muazzam qal’a” epitetli birikmasini ishlatganki, bu “Saddi Iskandariy “Hamsa”ning hajman eng katta dostoni ekaniga ishoradir. Bu ocherk tufayli G‘arb dostonning syujet o‘ramida (ya’ni S.G.Ouslining ramziy talqiniga ko‘ra, muazzam devor bilan o‘ralgan Aleksandr qal’asida) Navoiyning insoniyat intilib yashagan va yashayotgan ideallar-adolatli va ma’rifatli, shu bilan birga, adolatparvar va ma’rifatparvar bo‘lgan shoh, ma’rifiy muhit qaror topgan markazlashgan davlat va uni boshqarishning yuksak amallariga doir ijtimoiy siyosiy qarashlari, ilg‘or ibratnomalari o‘rta asrlardayoq, o‘zining badiiy tajassumini topganiga ishonch hosil qiladi. Navoiyni birinchilardan bo‘lib Evropada ilmiy-tanqidiy asnoda o‘rgangan bu ingliz sharqshunosi “Saddi Iskandariy” tahlili va Jomiyning qarashlariga suyanib, quyidagi xulosaga kelgan: “Mir Alisherning hammaga ham nasib etavermaydigan favqulodda qobiliyatiga tan bergani uchun ham Jomiy uni o‘z “Bahoriston”ida eng buyuk shoirlar ravzasiga kiritgan”. Ocherkda bu xulosani keng izohlab berish uchun asosli mushohadalar bayon etilgan.

Agar S.G.Ousli yuqoridagi kitobida Navoiyning ijodiga tan mo‘‘jaz bir ocherk yaratgan bo‘lsa, boshqa ingliz sharqshunoslari X.M.Eliot va N.Kinlar shoirning hayotiy yo‘li haqida qisqa va mazmunli ocherk yaratib, unda turli sharqiy va g‘arbiy manbalarda keltirilgan foktografik ma’lumotlarni ma’lum bir sistemaga to‘ldirib, xronologik shaklda ixchamlashtirib bayon etganlar. Tabiiyki, bu bilan inliz sharqshunosligining bu vakillari G‘arbiy Evropa ahliga Navoiyning hayot yo‘li haqida batafsilroq ma’lumot olish imkoniyatini tug‘dirib berdilar. Bundan tashqari, bu mualliflarning asarlarida Sharq va G‘arbiy Evropa tillaridagi Navoiyga aloqador ayrim bibliografik manbalar ham keltirilgan. Ya’ni H.M.Eliotning “Mahalliy mushtarakliklar tomonidan aytilgan Hindiston tarixi” va N.Kinning “Sharqiy biografik lug‘at” (T.V.Bil tomonidan yig‘ilgan materiallar asnosida) deb atalgan kitoblaridagi Navoiy haqidagi ocherklar ana shu dasturlarga amal qilib yozilgandir.

Ingliz turkiyshunosi Al.Davidning “Turkiy tillarning ilk rivojlanish bosqichidagi grammatikasi va sharqiy millatlarning adabiyoti” (1832) degan asarida esa Navoiyning turkiy (eski o‘zbek) til maqomini adabiy til maqomi darajasiga ko‘targaniga urg‘u beriladi. (A.L.Davidning bu asari, keyinchalik, 1836 yil uning onasi S.Davids tomonidan fransuz tiliga ham tarjima qilinib, nashr etilgan).

Shuningdek, XIX asrda Angliyada O‘rta Osiyo tarixi, jo‘g‘rofiyasi va etnografiyasiga oid yaratilgan turli manbalarda ham Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga oid ayrim ma’lumotlar keltirilgan. Bu xususida, ayniqsa, o‘sha davrda yaratilgan katta “Inglizcha komus”ni alohida eslatib o‘tish lozim bo‘ladi.

Alisher Navoiy ijodi 1888 yili taniqli ingliz tasnifchisi, sharqshunos Chardz Ryoning e’tiborini ham o‘ziga jalb etdi. U o‘zining “Britaniya muzeyida saqlanayotgan turkiy qo‘lyozmalarining tasnifi” nomli asarida Navoiy asarlarining 24 ta qo‘lyozmasi xususida to‘xtalgan.

Bular:

1. “majolis un-nafois” (4 nusxa)
2. “Nasoim ul-muhabbat min shamaim ul –futuvvat” (1 nusxa)
3. “Xamsa” to‘liq 5 ta doston (1 nusxa)
4. “Hayrat ul- abror (1 nusxa)
5. “Farhod va shirin” dostoni (1 nusxa)
6. “G‘aroyib ul-sig‘ar” devoni (5 nusxa)
7. “Navodir ush-shabob” devoni (1 nusxa)
8. “Bado’e ul-vasat” devoni (1 nusxa)
9. “Devon” (2 nusxa)
10. XVII asrda ko‘chirilgan qo‘lyozma (1 nusxa). Uning 1-44-sahifalarida Navoiyning she’riy asarlari uchun mahsus tuzilgan usmonli turk tilidagi lug‘at. 45-56-sahifalarida “G‘arib us-sig‘ar”ga yozilgan muqaddima. 56-184-sahifalarida faqat g‘azallardan iborat bir “Devon” jam etilgan.
11. Tanlangan she’rlar majmuasi (1 nusxa)

Albatta, XIX asr ingliz navoiyshunosligidagi bu kichik urinishlar, keyinchalik, G‘arbay Evropaning boshqa tillarda ijod etuvchi olimlarning ham navoiyshunoslikka oid qarashlarining keng quloch yozishiga zamin hozirladi. Bundan tashqari, zikr etilgan bu tadqiqotlar katta navoiyshunoslik tarixida ko‘tarinki sharqiy ritorikani mustasno etib dalil va tahlillarga tayangan holda ish ko‘rish lozimligini ingliz sharqshunoslariga ibrat qilib ko‘rsatdi.

Xulosa. XX asr oxirlariga kelib esa ingliz faylasuf olimlari orasida Alisher Navoiyni so‘fiy shoir sifatida o‘rganishga moyillik sezila boshlandi. Xususan, ingliz faylasufi Spenser Trimmengem Navoiyni G‘arb ahliga yirik tasavvuf shoiri sifatida tanilishiga sezilarli hissa qo‘shdi. Uning “So‘fizm tariqatlari: Kubraviya, Yassaviya va Naqshbandiya” (1990) nomli ishida bu masalaga keng o‘rin berilgan.

Ingliz navoiyshunoslarining bu izlanishlari, o‘z navbatida, so‘nggi davrlarga kelib, AKSh va Kanada olimlari diqqat e’tiborini Navoiy ijodiga qaratishga ham vosita bo‘ldi. Jumladan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq qilishda Kolumbiya dorilfununi Yaqin Sharq tillari va madaniyatlari departamenti qoshidagi O‘rta Osiyo bo‘limining boshlig‘i va shu bo‘lim professori Eduard Olvors, shu dorilfunun professori A.Prosik (O‘rta Osiyoda merosni va milliy masalani o‘rganish, 1978) Vashington dorilfununi Yaqin Sharq mamlakatlari xalqlari tillari va madaniyatlari fakultetining dekani, professor Ilza Sirjautas, Toronto dorilfununining Evropa-Osiyo departamentining raisi, forsshunos va tarjimon Richardo Ziyyolilar va shu dorilfunun professori E.Braunbaum (Usmonli turk va chig‘atoy adabiyoti 1976) shu yo‘nalishda muayyan ishlarni amalga oshirdilarki, bu xususda ilmiy umumlashmalar berish qiyosiy adabiyotshunoslik ilmining navbatdagi vazifalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sulaymonov H. Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining tavsifi. – Toshkent: Fan, 1970.
2. Ouseley, Gore. Biographical Notices of Persian Poets: With Critical and Explanatory Remarks. – London: Oriental Translation Fund of Great Britain and Ireland, 1846.
3. Davids, Arthur Lumley. A Grammar of the Turkish Language: With a Preliminary Discourse on the Language and Literature of the Turkish Nations. – London, 1832.
4. Elliot, Henry Miers. The History of India, as Told by Its Own Historians. – London: Trübner and Co., 1867.

5. Beale, Thomas William. An Oriental Biographical Dictionary / Edited by H.G. Keene. – London: W.H. Allen & Co., 1894.
6. Rieu, Charles. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum. – London: British Museum, 1888.
7. Trimingham, J. Spencer. The Sufi Orders in Islam. – Oxford: Clarendon Press, 1971 (Reprint 1990).
8. Allworth, Edward. Uzbek Literary Politics. – The Hague: Mouton & Co., 1964.
9. Procyk, Anna. Nationality Policy and the Heritage of Central Asia. – New York: Columbia University, 1978.
10. Birnbaum, Eleazar. Ottoman Turkish and Chagatay Literature. – Toronto: University of Toronto, 1976.